


## 2020- yilning yanvar-dekabr oylari uchun Surxondaryo viloyatida qurilish ishlari

4 690,6  
mlrd. soʻm


107,1 %

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Surxondaryo viloyatida jami **4 690,6 mlrd. soʻmlik** qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **107,1 %** ni tashkil etdi.

### Qurilish ishlari hajmining tarkibi



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʼyicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʼlgan korxona va tashkilotlar tarkibi boʼyicha boʼlinadi.

**Maʼlumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – oʼz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



**Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni,  
2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda**

2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 2 486 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 218 taga oshdi.



Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **102,0 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **67,3 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **125,0 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **12,7 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **132,5 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **20,0 %**) o'sishidir.




**Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)**

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.01.2020- yil	01.01.2021- yil	
<b>Surxondaryo viloyatii</b>	<b>2 268</b>	<b>2 486</b>	<b>109,6</b>
<b>Termiz sh.</b>	<b>689</b>	<b>738</b>	<b>107,1</b>
<b>tumanlar:</b>			
<b>Oltinsoy</b>	<b>47</b>	<b>57</b>	<b>121,3</b>
<b>Angor</b>	<b>122</b>	<b>143</b>	<b>117,2</b>
<b>Bandixon</b>	<b>-</b>	<b>42</b>	<b>-</b>
<b>Boysun</b>	<b>133</b>	<b>144</b>	<b>108,3</b>
<b>Denov</b>	<b>138</b>	<b>149</b>	<b>108,0</b>
<b>Jarqo'rg'on</b>	<b>172</b>	<b>201</b>	<b>116,9</b>
<b>Qiziriq</b>	<b>136</b>	<b>139</b>	<b>102,2</b>
<b>Qumqo'rg'on</b>	<b>144</b>	<b>144</b>	<b>100,0</b>
<b>Muzrabot</b>	<b>111</b>	<b>110</b>	<b>99,1</b>
<b>Sariosiyo</b>	<b>127</b>	<b>138</b>	<b>108,7</b>

Termiz	217	223	102,8
Uzun	52	50	96,2
Sherobod	74	85	114,9
Sho'rchi	106	123	116,0


**Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan  
qurilish korxonalari soni,  
01.01.2021- yil holatiga ko'ra (ulushi, % da)**



**Ma'lumot uchun:** viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Termiz sh. (29,7 %), Termiz tumani (9,0 %) va Jarqo'rg'on (8,1 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **670,6** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **79,2 %** ga bajarilgan bo‘lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko‘rsatkich darajasidan **5,2 %** punktga kamayib, **14,3 %** ni tashkil etdi.

**2020- yilning yanvar-dekabr oylarida yirik qurilish tashkilotlari  
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**



■ ulushi, % da      □ o’sish sur’ati, % da




**Ma‘lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Sariosiyo tuman (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining **54,3 %** i yoki 2019- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan **70,9 %**), Qumqo‘rg‘on (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **24,6 %** i yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **93,3 %**), va Termiz shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **2,6 %** i, yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **80,5 %** ) ga to‘g‘ri keldi.



## Qurilish ishlaringning umumi hajmida kichik korxona va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlaringni bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **61,3 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-dekabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **0,5 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **107,2 %** ni tashkil etgan holda **2 876,4 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **24,4 %** ni tashkil etdi yoki **1 143,6 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **135,4 %** ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida  
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **21,5** mlrd. so'm yoki Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **4 669,1** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **0,5 %** va **99,5 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar  
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**





**2020- yilning yanvar-dekabr oylarida  
hududlar kesimida mulkchilik shakllari  
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>4 690,6</b>	<b>21,5</b>	<b>0,5</b>	<b>4 669,1</b>	<b>95,5</b>
<b>Termiz sh.</b>	<b>1 200,0</b>	<b>21,5</b>	<b>100,0</b>	<b>1 178,5</b>	<b>25,2</b>
<b>tumanlar:</b>					
<b>Oltinsoy</b>	<b>96,7</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>96,7</b>	<b>2,1</b>
<b>Angor</b>	<b>187,1</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>187,1</b>	<b>4,0</b>
<b>Bandixon</b>	<b>35,7</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>35,7</b>	<b>0,8</b>
<b>Boysun</b>	<b>309,1</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>309,1</b>	<b>6,6</b>
<b>Denov</b>	<b>345,4</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>345,4</b>	<b>7,4</b>
<b>Jarqo'rg'on</b>	<b>299,2</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>299,2</b>	<b>6,4</b>
<b>Qiziriq</b>	<b>132,4</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>132,4</b>	<b>2,8</b>
<b>Qumqo'rg'on</b>	<b>168,5</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>168,5</b>	<b>3,6</b>
<b>Muzrabot</b>	<b>202,7</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>202,7</b>	<b>4,3</b>
<b>Sariosiyo</b>	<b>887,6</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>887,6</b>	<b>19,0</b>
<b>Termiz</b>	<b>256,0</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>256,0</b>	<b>5,5</b>
<b>Uzun</b>	<b>143,3</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>143,3</b>	<b>3,1</b>
<b>Sherobod</b>	<b>288,9</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>288,9</b>	<b>6,2</b>
<b>Sho'rchi</b>	<b>138,0</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>138,0</b>	<b>3,0</b>

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2020- yil yanvar-dekabr

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 76,3 % i yoki **3 579,3** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

76,3 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **614,2** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 91,6 % ni tashkil etdi

91,6 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1 912,4** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 66,5 % ni tashkil etdi.

66,5 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **1 052,7** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 92,1 % ni tashkil etdi.

92,1 %




**2020- yilning yanvar-dekabr oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. soʻm)	Oʼsish surʼati, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>4 690,6</b>	<b>107,1</b>	<b>100,0</b>
<b>Termiz sh.</b>	<b>1 200,0</b>	<b>112,6</b>	<b>25,6</b>
<b>tumanlar:</b>			
<b>Oltinsoy</b>	<b>96,7</b>	<b>107,1</b>	<b>2,1</b>
<b>Angor</b>	<b>187,1</b>	<b>106,5</b>	<b>4,0</b>
<b>Bandixon</b>	<b>35,7</b>	<b>111,8</b>	<b>0,8</b>
<b>Boysun</b>	<b>309,1</b>	<b>109,0</b>	<b>6,6</b>
<b>Denov</b>	<b>345,4</b>	<b>112,5</b>	<b>7,4</b>
<b>Jarqoʼrgʼon</b>	<b>299,2</b>	<b>121,4</b>	<b>6,4</b>
<b>Qiziriq</b>	<b>132,4</b>	<b>111,8</b>	<b>2,8</b>
<b>Qumqoʼrgʼon</b>	<b>168,5</b>	<b>105,3</b>	<b>3,6</b>
<b>Muzrabot</b>	<b>202,7</b>	<b>113,1</b>	<b>4,3</b>
<b>Sariosiyo</b>	<b>887,6</b>	<b>92,3</b>	<b>18,9</b>
<b>Termiz</b>	<b>256,0</b>	<b>104,8</b>	<b>5,5</b>
<b>Uzun</b>	<b>143,3</b>	<b>111,1</b>	<b>3,0</b>
<b>Sherobod</b>	<b>288,9</b>	<b>112,5</b>	<b>6,1</b>
<b>Shoʼrchi</b>	<b>138,0</b>	<b>107,0</b>	<b>2,9</b>

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
qurilish ishlari

*ulushi, % da*



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarinining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




## Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **0,5 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-dekabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,2 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-dekabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **7,2 %** punktga kamayib, **63,7 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2019- yilning yanvar-dekabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **7,0 %** punktga ko'payib, **35,8 %** ni tashkil etdi.


*ulushi, % da*



## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **51,8 %** ni tashkil etdi va 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **9,0 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **48,2 %** (**9,0 %** punktga ko'payish) ni tashkil etdi.






## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **7,7 %** punktga kamaydi va **10,9 %** ni tashkil etdi. Qolgan **89,1 %** i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **7,7 %** punktga ko'paydi.

*ulushi, % da*



2019- yil

yanvar-dekabr

2020- yil


yanvar-dekabr

2020- yil  
yanvar-dekabr

Surxondaryo viloyatida qurilish ishlari

14

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari





## SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi  
Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi**

**Tel.: 76 225-65-59**